

**Surxondaryo viloyati  
statistika boshqarmasi**



**2019 yilning yanvar-noyabr oylarida  
QURILISH ISHLARI**

**Raqamlar:**

Qurilish ishlari hajmi-

**3597,6 mlrd.so'm**

Yirik qurilish  
tashkilotlari ulushi -  
**16,1 %**

Kichik korxonalar va  
mikrofirmalar ulushi -  
**63,1 %**

Norasmiy sektor  
ulushi- **20,8 %**

Joriy yilning yanvar-noyabr oylarida Surxondaryo viloyatida jami **3597,6** mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan **123,7 %**ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 579,3 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 16,1 % hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,5 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 63,1 %i yoki 2268,6 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,6 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor

hissasiga esa 20,8 % yoki 749,7 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 %ni tashkil etdi.

**Yirik qurilish tashkilotlari**

hajmi - **579,3 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **122,5 %**

**Kichik korxonalar va mikrofirmalar**

hajmi - **2268,6 mlrd.so'm**


o'sish sur'ati - **133,6 %**

**Norasmiy sektor**

hajmi - **749,7 mlrd.so'm**

o'sish sur'ati - **102,2 %**

## Yanvar-noyabr oylarida faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo`ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo`ljallanmagan binolarni qurish bo`yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 68,2 %ni tashkil etdi va o`tgan yilning mos davridagi ko`rsatkichga nisbatan 5,6 % punktga kamaydi.




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 26,3 %ni tashkil etib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 4,5 % punktga ko`paydi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 5,5 % to`g`ri keldi hamda o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan 1,1 % punktga ko`paydi.



## Yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo`yicha tarkibi



- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo`yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 0,2 %ni tashkil etdi.

Bunda kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 69,3 % (5,2 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 30,5 %ni tashkil etdi.

## 2019 yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi



Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik qurilish tashkilotlarining ulushi 57,3 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,4 % punktga kamaydi). Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi 42,7 % (6,4 % punktga ko'payish) tashkil etdi.


Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 15,8 % punktga kamaydi va 17,0 %ni tashkil etdi.

Qolgan 83,0 % kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 15,8 % punktga ko'paydi.

## 2019 yilning yanvar-noyabr oylarida hududlar kesimida qurilish ishlari

	<i>Jami</i>		<i>shu jumladan:</i>	
			<i>hududiy yirik qurilish tashkilotlari</i>	
	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, %da</i>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>3597,6</b>	<b>123,7</b>	<b>579,3</b>	<b>122,5</b>
Termiz sh.	1057,0	135,4	31,5	80,1
tumanlar:				
Oltinsoy	64,4	113,1	-	-
Angor	147,6	109,5	-	-
Boysun	220,5	122,7	-	-
Denov	220,2	118,1	-	-
Jarqurg'on	220,2	110,2	1,7	-
Qiziriq	130,9	116,7	10,6	198,9
Qumqurg'on	151,5	104,5	33,9	80,1
Muzrabot	131,5	132,8	-	-
Sariosiyo	636,3	123,1	441,6	130,1
Termiz	215,8	118,2	5,0	97,7
Uzun	112,1	122,4	16,0	-
Sherobod	173,4	130,7	39,0	94,6
Sho'rchi	116,2	130,7	-	-

## Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari (jamiga nisbatan %da)



■ Yirik qurilish tashkilotlari   ■ Kichik korxonalar va mikrofirmalar   ■ Norasmiy sektor


Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2268,6 mlrd. so'mni (jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 63,1 %) tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 133,6 %ni tashkil etdi.

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 579,3 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlaridagi ulushi 16,1 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 122,5 %ni tashkil etdi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 20,8 % yoki 749,7 mlrd. so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,2 %ni tashkil etdi.




## Hududlar kesimida qurilish ishlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Oltinsoy tumanida tumandagi qurilish hajmining 75,7 %, Termiz tumanida 74,0 %, Boysun tumanida 72,3 % hamda Termiz shahrida 90,8 %ni tashkil qildi.

## 2019 yil yanvar-noyabr oylarida qurilish ishlarining mulkchilik shakllari bo`yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da )




Davlat mulkchiligi shaklidagi korxonalar tomonidan 73,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2,1 %ni tashkil qildi.

Mos ravishda nodavlat mulkchilik shaklidagi korxonalar tomonidan 3523,8 mlrd. so`mlik qurilish ishlari amalga oshirilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 97,9 %ni tashkil qildi.






## Hududlarda qurilish ishlarining o`shish suratlari (o`tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Qurilish ishlarining hududlar kesimida yuqori o`shish sur`ati Sariosiyo tumanida kuzatilgan bo`lib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan o`shish sur`ati 123,1 %ni tashkil etdi. Bu tumandagi qurilish ishlarining asosiy qismi yirik qurilish tashkilotlari hissasiga to`g`ri kelib, tumandagi jami qurilish ishlarining 69,4 %ini tashkil qiladi.



## Yanvar-noyabr oylarida shahar va tumanlar kesimida qurilish ishlari, (jamiga nisbatan %da)



Shahar va tumanlar kesimida jami bajarilgan qurilish ishlarining hajmini viloyatda eng yuqori ulushi Termiz shahriga 29,4 % ga to'g'ri keldi. Shu bilan bir qatorda Sariosiyo tumaniga 17,7 %, Denov tumaniga 6,1 % va Boysun tumaniga 6,1 % ga to'g'ri keldi.



**Surxondaryo viloyat statistika boshqarmasi**  
**Investitsiya va qurilish statistikasi**  
**bo'limi**

Aloqa telefoni:

**(76) 223-07-15**

**(71)230-85-81**